




ALISHER NAVOIYNING KO'RGANIMDUR SUBHNING.....
G'AZALI TAXLILI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10968234>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-aprel 2024 yil

Ma'qullandi: 11-aprel 2024 yil

Nashr qilindi: 13-aprel 2024 yil

KEY WORDS

*g'azal, she'riyat, o'zbek tili, aruz,
asar.*

ABSTRACT

*G'azal mulkinging sultoni Alisher Navoiy o'zbek tilining
rivojlanishiga juda ham katta hissa qo'shgan. Turkiy
tilning qanchalik boy til ekanligini o'zining basarlari
orqali ko'rsatib bergan.*

She'riyat tarixi insoniyat tarixidek qadimiy tarixga ega mavzudur. Odamlar asrlar davomida o'z his-tuyg'ularini, fikrlarini ifodalash uchun she'rdan foydalanganlar. She'riyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, turli madaniyat va davrlarda juda xilma-xil uslub va mavzularni ko'rish mumkin. Uyg'onish davri bilan she'riyatga individual yondoshuv ko'rila boshlandi. Shoirlar undan o'z his-tuyg'ularini, fikrlarini ifodalashda foydalanganlar. Uilyam Shekspirning sonetlari bu davrdagi eng mashhur she'riyat namunalaridan biridir. Bugun she'riyat hamon jonli san'at turidir. Shoirlar turli mavzu va uslublarda asarlar yaratadilar. She'riyat tarixi ana shu rang-baranglik doirasida muttasil rivojlanib, takomillashib boradi.

Alisher Navoiy g'azal mulkinging sultoni. Uning g'azallari haligacha odamlarning ko'nglidan joy olib keladi va har bir zamonga birdek mos keladi. Sababi insondagi his tuyg'ular o'zgarmaydi-ku vaqtlar o'tsa ham shu his tuyg'ularimiz biz bilan hamnafas bo'ladi shuning uchun Alisher Navoiy she'rlari hech qachon eskirmaydi. Ilm-fanni faol bir sistemaga aylantirish borasidagi konsepsiyalari bevosita tilshunoslik faniga ham daxldor bo'lib, o'zbek tilshunosligida hozirgi kunda yangi-yangi tadqiq usullarining qidirilishi ana shu talabdan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday degan: "Buyuk tarixda hech narsa iza ketmaydi. U xalqning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir".

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining sh'riy va nasriy asarlarida

yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, er yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Uning bir g'azalining tarixiga nazar tashlaymiz.

Alisher Samarqandda tahsil ko'rayotgan yillarda bir matla'ning asiri, maftuni bo'ldi:

Ko'rganimdur subhning.....

Ko'rganimdur subhning pirohanidin chokrok.

Kiprigim shabnam to'kilgan sabzadin namnokroq.

Bu ko'ngul g'amnokidin to shodmon ko'rdum seni.

Istaram har damki, bo'lg'ay xotirim g'amnoknok.

Alisherni o'ziga asiru maftun etgan bayt shu bo'lib, uning sohibi bir gado edi. Samarqand bozorida kechgacha baland, shirali ovozi bilan shu baytni takrorlardi, baytni gadodan qayta-qayta eshitib, zavqlanuvchi, unga sadaqa in'om qiluvchi ahli dard, ahli fazl kimsalar oz emas edi.

Navoiy gadoning yoqimli ijrosida matla'ni qayta-qayta tinglar, yodlab olingan matla'ni yo'l-yo'lakay zamzama qilar, hujraga qaytganda ham qulog'ida shu misralar jaranglab, kechalari uyqu bermas edi.

"Xaridor bo'lib, shu baytingizni menga soting, desam sotarmikin?... Balki sotar, balki sotmas!...Qani endi menga sotsa edi". Bu istak Navoiyni tinch qo'ymadi, gado orqasidan ergashib, xarobasiga borishga, qo'lidan tutib, iltimos qilishga ahd qildi:

— Otaxon! Shu baytingizni menga soting! Aqcham kifoya qilmasa, to'nimni ham sotib beray. Yo'q demang!

Navoiyning iltimosini eshitgan keksa gado qah-qah urib kulib yubordi, keyin boshini chayqab iltimosini rad qildi.

— Ko'riningizdan qashshoq mullavachchaga o'xshaysiz! Shundog'mi?

— Shundog'.

— Shundog' bo'lsa, baytni sotib olish niyatidan keching, tekinga oling, yodlab o'qib yura bering! Buning uchun mening tomonimdan qanday mone'lik bo'lishi mumkin?...

— Shuning uchun sotib olishim kerakki, u chog'da siz bu matla'ni kuylab, tilanishdan mahrum bo'lursiz.

Navoiydan bu da'voni eshitgan gado miyig'ida kulib, tamasxurona bosh chayqadi:

— Balki kuchingiz yetmas, balki buni shohlikka alishmasman. Zeroki, bu bayt menga otamdan meros qolgan, men uni qirq yildan beri takrorlayman, bu bilan qornimni to'yg'izaman, bola-chaqa boqaman!...

— Otangiz shoirmidilar?

— Shoir emas edilar, bog'bon edilar, bu baytni baland ovozda kuylab bog'ni parvarish qilar edilar.

— Faqat bir baytning o'zimidi yoki to'la, mukammal g'azal edi-yu, siz shu bir baytni yodda qoldirganmisiz?...

— Yo'q! Otam ham shu bir baytni takrorlar edi.

— Qaysi zotning asarlari ekanligini ham bilmassiz?...

— Afsus, nomu taxalluslarini bilmayman. Otam ham bundan xabarsiz bo'lgan bo'lsalar kerak!...

Navoiy g'amgin sukutga cho'mdi, gado so'zini davom ettirdi:

— Siz yod olib, o'qib yurishingiz uchun mening rizo bo'lishim kifoya qilmaydimi?

— Men sizning rizoligingizsiz ham yod olib zamzama qilib yuribman. Lekin men uchun bu kifoya emas.

Shunday qilib, Navoiyning umidi uzildi, bo'shashib hujraga qaytib keldi.

Navoiyning boshqa nodir g'azallari qatori bu "roq" radifli g'azali ham o'z vaqtida muxlislariga yetdi, hofizlar uni kuyga solib kuyladilar, bu mashhur, o'lmas kuyning nomi ham "roq" deb ataladi, bu kuy Navoiyning g'azali bilan asrlar osha bizning davrimizga yetib keldi, uni to'y-tantanalarimizda atoqli hofizlarimiz tomonidan zavq-shavq bilan kuylanib, kishilarimizga ruhi g'izo baxsh etmoqda. Shaxs tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar g'azallarda son-sanoqsiz. Ular semantik va stilistik jihatdan rang-barang. Ularni shaxs tushunchasini to'liq ifoda etuvchilar yoki qisman ifoda etuvchilar asosida tasnif etish mumkin. Qavm-qarindoshlik, kasb-hunar, martaba va nasl-nasab, qisman semantik ko'plik ifoda etuvchi otlar shaxs tushunchasini konkret ifoda etadi. Ayrim o'rinlarda inson ta'na a'zolari nomlari ham shaxs tushunchasini ifodalashi mumkin. Forsiy izofalar, ayrim mifonimlarda ham "shaxs" semasi reallashadi. Ayrim sifatlar ham otlashuv, konversiya tufayli shaxs tushunchasini ifodalaydi. Ular sho'x, olifta, qari, makkora kabi leksemalarni tashkil etadi. Ko'chimning ba'zi turlari - metafora, sinekdoxa, jonlantirishlar ham predmetlarda shaxs tabiatini namoyon qiladi. Shaxs otlari she'riyatda murojaat shakliga xoslanishi mumkin. Personal birliklarda ko'plik semantikasi morfologik usulda va flektiv usulda ifodalanadi. Ikkinchi usul hozirgi o'zbek adabiy tilida me'yor sanalmasa-da, Navoiy asarlari tili uchun xarakterli. Tilning keyingi tarixiy taraqqiyotida bu usulda ko'plik hosil qilinmaydi.

Muayyan tuzilishga ega bo'lgan kichik bir sistema sifatida o'zbek tilshunosligidalarining semantik xususiyatlari monografik asosda tadqiq etilgan bo'lishiga qaramay, bunday birliklarning Navoiy she'riyatidagi talqini va uslubiy xususiatlarini o'rganish orqali shaxs nomlarining semantik taraqqiyoti va qo'llanishidagi o'ziga xosliklarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Alisher Navoiy g'azallarini ko'zdan kechirish davomida ayrim tarixiy shaxs nomlarini ham uchratdik. Bular orasida Iskandar nomi she'riyatda ko'p qo'llanishi kuzatildi. Biroq shoh G'oziy va Sulton Husayn Boyqaro, Aflotun antroponimlarining qo'llanishini kamyob ko'rinish sifatida etirof etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy “Hikmatlar” O‘zbekiston. - Toshkent 2011.
2. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. Fan -Toshkent 2007.
3. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. O‘qituvchi -Toshkent 1995.



**INNOVATIVE
ACADEMY**